

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 2. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 2(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ***Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна*ЎЗБЕК ВА ТОЖИК АНЪАНАВИЙ ТАОМЛАРИДА ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ АКС
ЭТИШИ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА) 10-15*Umarov Sardor Yakubovich*QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI,
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR 16-20**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ***Shadiyeva Gulnora Mardiyevna*O'ZBEKISTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH
YO'LLARI..... 21-29*Халилдинов Азизбек Абдуқаххорович*КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ
БОШҚАРИШГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР 30-34*Мавлянов Мажид, Урдушев Хамракул*

КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ: ЧОРВАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ 35-45

*Асроров Азизбек Исомиддин угли*ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РИСКОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 46-52*Хайдарова Дурдона Шухратжон қизи, Ачилбойева Севинч О'ткир қизи*

МАНАЛЛИЙ BUDJET DAROMADLARI HISOBI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI. 53-60

*Камалов Акмал Сайдакбарович*ХАЛҚАРО ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ЭҲТИМОЛЛИГИНИНГ
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ
УСЛУБИЯТИ ИШЛАБ ЧИҚИШ 61-68*Namazov Gafur Shokulovich*

IQTISODIYOTDA GIBRID MODELLARNI QO'LLASH 69-75

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*

YANGI O'ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O'ZGARISHI 76-81

Kadirova Ziyoda Rahimdjanovna

ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI 82-86

Turdiyev Bexruz Sobirovich

JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI 87-92

Alimatova Nargis Abduxalilovna

KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI 93-98

Abdullayev Ibodulla Abdullayevich, Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi

MA'NAVIYAT – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR..... 99-103

<i>Кувандиков Шокир Облокулович</i> МАҲМУДХҲҲЖА БЕҲБУДИЙ МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ МАНБАЛАРИ	104-111
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR MAFKURAVIY ONGI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR	112-119
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> BADIIY MUHITDA TANQIDIYLIK VA SATIRANING TABIIY KOMMUNIKATSIYASI	120-125
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Saitova Nilufar Djumaydillayevna</i> YOSH O'ZBEK SHOIRLARI: VOQELIKNI IDROK ETISH VA UNI BADIIY IFODALASH TENDENSIYALARI	126-130
<i>Nurmanov Furqat Hayitqulovich</i> O'G'UZ" ETNONIMI VA O'G'UZLAR	131-137
<i>Qudratova Sitora Olimovna</i> AQSH HIKOYACHILIGI TARIXI VA SPETSIFIKASINING BADIIY IFODASI HAMDA JANR IJODKORLARI.....	138-148
<i>Fayziyeva Aziza Anvarovna, Safarova Nigora Axatovna</i> METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV	149-153
<i>Qodirova Madinabonu Murodjon qizi</i> LINGVISTIK TA'MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI	154-159
<i>Аллабердиева Регина, Мадалов Навруз</i> ТАКСОНОМИЯ ГЕНДЕРНО-МАРКИРОВАННЫХ ПАРЕМИЙ - РЕГУЛЯТИВОВ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ	160-165
<i>Azimova Aziza Alisher qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI	166-172
<i>Shoymardonov Ilhom Alixonovich</i> BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG'LIQ BOLALAR QO'SHIQLARI	173-178
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI....	179-184
<i>Mirzayev Jasur, Madalov Navruz</i> THE DIALOGIC NATURE OF PERSONIFICATION IN THE POETICS OF WILLIAM BLAKE.....	185-190
<i>Yuan Xiaowei</i> ON THE TITLE AND LEXICAL FEATURES OF THE WINTER OLYMPICS NEWS REPORT IN CHINA DAILY	191-197
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ражабов Нариман Шарифбаевич</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОБРОВОЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	198-206
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLIK	

HUQUQI OBYEKTLARIDAN FOYDALANUVCHI SHAXSLAR O'RTASIDAGI SHARTNOMALAR TASNIFI.....	207-212
<i>Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li</i> TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	213-220
<i>Raimova Shohsanam Fayratjonovna</i> РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЛАР ВА УЛАРНИНГ ХУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ.....	221-227
<i>Mukimov Bobur</i> CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AT THE INTERNATIONAL LEVEL.....	228-234
<i>Нодирахон Абдурахманова</i> ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН, СМАРТ-КОНТРАКТОВ И КРИПТОВАЛЮТ НА РАЗВИТИЕ ПРАВА.....	235-239
<i>Акмалхонов Боситхон Азизхон ўғли</i> ЗАЩИТА ПРАВА ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ПРАКТИКЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА.....	240-246
<i>Turakulova Nazira</i> MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOVIIY BOSHQARISH.....	247-260
<i>Якубов Бекзод Эркинбаевич</i> КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ҲОЛЛАРДА ТЕЗКОР – ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ ВА УНИНГ ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ.....	261-265
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Мамажонов Хошимжон Абдумаликович</i> ФИЗИКА ФАНИНИ ИЈОДИЙ О'ЗЛАСHTIRISH YO'LLARI (АКАДЕМИК ЛИТСЕYLAR MISOLIDA).....	266-271
<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARIDA ISPAN TILI BO'YICHA IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI O'QITISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHTI.....	272-281
<i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i> TASVIRIIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI.....	282-287
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i> KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	288-291
<i>Omonqulov Ulug'bek Maxsiddin o'g'li</i> IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI.....	292-296
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM.....	297-304
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> TASVIRIIY SAN'ATNING O'QUVCHILAR IDROKI VA IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI.....	305-310

Yusupova Feruza Hajiboyevna, Gaipova Nilufar Jasurbekovna

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK TA'LIM BERISHDA GRAFIK

ORGANAYZERLARNING ROLI 311-317

Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna

SOMONIYLAR DAVRI SAN'ATI VA UNING JAHON TARIXIDAGI ROLI..... 318-322

09.00.00- ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich

Farg'ona davlat universiteti, falsafa kafedrası o'qıtuvchisi

YANGI O'ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O'ZGARISHI

Annotatsiya. Maqolada Ommaviy axborot vositalari rivojlantirish tajribasini tizimlashtirish zarurati, uning intensiv modernizatsiyasini qo'llab-quvvatlash, axborot inqirozi sharoitida media maydonda omon qolishning noyob tajribasini o'rganish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining tizimli o'zgarishi jarayonlarini har tomonlama o'rganish, ommaviy axborot vositalarining barqarorlikni saqlash va foydalanuvchilar auditoriyasida mafkuraviy stereotiplarni shakllantirishdagi roli tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, axborot, media makon, internet, elektron resurs, ma'lumotlar almashinuvi, ijtimoiy-falsafiy tahlil, virtual dunyo, telekommunikatsiya, tizimli tahlil, ijtimoiy ong, ijtimoiy rivojlanish.

Rasulov Azizkhon Mukhamadgadirovich

Fergana State University, teacher of philosophy department

SYSTEMATIC CHANGE OF THE MEDIA IN THE NEW UZBEKISTAN

Abstract. The article examines the need to systematize the mass media development experience, to support its intensive modernization, and to study the unique experience of survival in the media field in the context of an information crisis. Also, a comprehensive study of the processes of systematic change of mass media in New Uzbekistan, the role of mass media in maintaining stability and forming ideological stereotypes in the audience of users was researched.

Keywords: New Uzbekistan, information, media space, internet, electronic resource, data exchange, socio-philosophical analysis, virtual world, telecommunications, systematic analysis, social consciousness, social development.

Расулов Азизхон Мухамадкадирович

Ферганский государственный университет,
преподаватель кафедры философии

СИСТЕМАТИЧЕСКАЯ СМЕНА СМИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье рассматривается необходимость систематизации опыта развития средств массовой информации, поддержки их интенсивной модернизации, изучения уникального опыта выживания в медиополе в условиях информационного кризиса. Также было проведено комплексное исследование процессов системного изменения средств массовой информации в Новом Узбекистане, роли средств массовой информации в поддержании стабильности и формировании идеологических стереотипов в аудитории пользователей.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, информация, медиaprостранство, Интернет, электронный ресурс, обмен данными, социально-философский анализ, виртуальный мир, компьютер, телекоммуникации, системный анализ, общественное сознание, социальное развитие.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N10>

Kirish. Yangi O'zbekiston davlatchiligining shakllanishi jarayonida jamiyatning murakkab o'zgarishi ko'p jihatdan axborot makonining tuzilishi, hajmi va sifatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, ular ichida elektron ommaviy axborot vositalari alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan Yangi O'zbekiston axborot siyosatining serqirra ta'sirini belgilovchi omillarni tushunish, aniqlash va tavsiflash zarurati paydo bo'lgan. Shu boisdan ham ommaviy axborot vositalari tizimini o'zgartirish jarayonlarini har tomonlama tahlil qilishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

O'zbekistondagi demokratik institutlar shakllantirilishining yangi bosqichga o'tishi dunyo hamjamiyatning inqirozli holatida sodir bo'lmoqda. Bu bir qator dolzarb muammolarning paydo bo'lishiga olib keladi, ularning aksariyati mamlakat ommaviy axborot vositalari tizimi faoliyatining samaradorligi bilan belgilanadi. Dunyodagi iqtisodiy, siyosiy va axborot inqirozi sharoitida Yangi O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ommaviy axborot vositalarining faol ta'siri kuzatiladi. Doimiy axborot qarama-qarshiligi va PR haqidagi noxolis ma'lumotlar hajmi ham ortib boradi.

Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish tajribasini tizimlashtirish zarurati uning intensiv modernizatsiyasini qo'llab-quvvatlab, asta-sekin yangi geosiyosiy va ijtimoiy-madaniy makonga moslashuviga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ijtimoiy fanlarda odamlarni guruhlarga birlashtirishning turli usullarini, ularning guruh ichidagi va guruhlalararo munosabatlarining turlarini hisobga olgan holda inson jamoalari tipologiyasini maxsus tadqiq etish zaruriyati dolzarb bo'lib bormoqda. Maqolada insonlar birlashmalarining eng zamonaviy shakllaridan biriga, ya'ni axborotlashish jarayoniga murojaat qilamiz. Ushbu holat zamonaviy jamiyatda shakllangan kommunikativ vaziyatning aksiga aylandi. Kishilik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlari qator fanlar: falsafa, sotsiologiya, tarix, antropologiya va boshqalarni qiziqtiradi. Asosiy xususiyatga qarab, jamiyat shakllanishining u yoki bu xronologik modelini taklif qilish mumkin.

Axborot inqirozi sharoitida media maydonda omon qolish va yashashning noyob tajribasini o'rganish, shuningdek Yangi O'zbekistonning axborot rivojlanishi dinamikasi va tendensiyalarini muvozanatli tahlil qilish va obyektiv baholash, nafaqat ilmiy hamjamiyat tushunchasini boyitishga yordam beradi, balki soha foydalanuvchilari o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlarni izchil hal qilishga ham hissa qo'shadi.

Yangi O'zbekiston axborot makonidagi transformatsiyalashuvni o'rganish darajasi bizning e'tiborimizni mintaqa ommaviy axborot vositalarining tizimli o'zgarishi jarayonlarini tavsiflashga, shuningdek, mamlakatda yangi davlatchilikni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining rolini baholashga qaratish imkonini beradi. Bu esa Yangi O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining tizimli o'zgarishi jarayonlarini har tomonlama o'rganish imkonini beradi. Shu bilan birga ommaviy axborot vositalarining barqarorlikni saqlash va foydalanuvchilar auditoriyasida mafkuraviy stereotiplarni shakllantirishdagi rolini belgilaydi.

Muhokama. Ommaviy axborot vositalarining tarkibiy tahlilini o'tkazish, bosma va elektron ommaviy axborot vositalarining mazmunini tahlil qilish, ularning ijtimoiy-madaniy ustuvorliklarini belgilash, tarmoqning aloqa strategiyasi xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, media tizimini rivojlantirishning optimal modelini shakllantirish yo'nalishlarini ishlab chiqish sohaning tizimli o'zgarishi jarayonida yuzaga keladigan jarayonlar va munosabatlardir.

Axborot makonining asosiy komponenti sifatida ommaviy axborot vositalarining empirik asosiga quyidagilar kiradi:

- Yangi O'zbekiston bosma va onlayn ommaviy axborot vositalarining materiallari;

- - ommaviy axborot vositalari, axborot va axborotlashtirish sohasidagi qonunchilik bazasi;
- - Axborot ommaviy telekommunikatsiyalar vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi vakolatiga kiruvchi zamonaviy axborot sohasini shakllantirishning huquqiy asoslariga taalluqli rasmiy hujjatlar;
- respublika, hududiy va mahalliy televideniye, bosma nashrlar va ijtimoiy tarmoqlar faoliyati.

Mazkur tizimli tahlil davlatning axborot siyosatining kuchli va zaif tomonlari aniqlaydi, ommaviy axborot vositalari tizimining tipologik xususiyatlarini o'rganadi [4].

Natijalar. Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari, so'z va axborot erkinligini ta'minlash, fuqarolarning axborot olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini kafolatlash borasida yetarli darajada qonun hujjatlari qabul qilinib, sohaning mustahkam huquqiy bazasi yaratildi. Shu bilan birga, matbuot, ommaviy axborot vositalari, axborot tarqatish, aholini xolis va tezkor axborot bilan ta'minlash, mamlakatimizda sodir bo'layotgan yangiliklarni chet davlatlarga, chet davlatlardagi voqea-hodisalarni mamlakatimiz aholisiga tezkorlik bilan etkazish muhim vazifa hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning asl mazmuni va mohiyati haqida xolis xabarlarini aholining barcha qatlamlariga hamda dunyo hamjamiyatiga tezkorlik bilan va sifatli etkazish, milliy axborot makonini rivojlantirish, global axborot maydonida respublikaning o'rnini yanada mustahkamlash, shuningdek, O'zbekiston Milliy axborot agentligi faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida, 2019 yil 2 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "O'zbekiston Milliy axborot agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zA va O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasining respublika ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid yangiliklar bo'yicha fuqarolarda xolis fikrni shakllantirish, ularga axborot-tahliliy, shu jumladan, audio va video axborotlar etkazish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida **O'zA tarkibida Media markaz tashkil etish belgilab berilgan. Shu bilan birga,** O'zbekiston Milliy axborot agentligi respublika hayotiga oid ijtimoiy-siyosiy axborotlarni tarqatuvchi rasmiy axborot agentligi ekani qayd etildi va agentlik faoliyati tubdan qaytadan takomillashtirildi, moddiy-texnik bazasi zamonaviy talablar asosida yangilandi [3].

Yangi O'zbekiston uchun suveren shaxsning erkinligi va demokratiyasi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, erkin OAVning roli eng dolzarb g'oyalardandir. Birinchidan, bugungi kun voqeligi insoniyat o'z taraqqiyotining yangi axborot bosqichiga qadam qo'yanini ko'rsatadi. Ommaviy axborot vositalarining davlat, jamiyat va fuqarolarga axborot ta'siri endi siyosiy, iqtisodiy va hatto harbiy masalalardan ko'ra samaraliroqdir. Axborot haqiqiy moddiy kuchga aylandi. Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalarining insonga ta'sirini yetarlicha baholamaslik va jamoatchilik ongini manipulyatsiya qilish inson va jamiyatning madaniy qadriyatlari tanazzulga uchrashining asosiy sabablaridan biriga aylanadi.

Zamonaviy media tizimining shakllanishi va rivojlanishini belgilab bergan omillar Yangi O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining mafkuraviy qarama-qarshiligi va jamoat ongi sindromini to'g'ri tartibga solishga ko'maklashadi. Davlatning zamonaviy media axborot siyosatining yagona konsepsiyasi kontekstida qonunchilik bazasiga muvofiq faoliyat yurituvchi rivojlangan televizion tarmoq, radioeshittirish, davriy nashrlar va onlayn jurnalistika faoliyat olib boradi. Ular o'z navbatida mintaqa aholisining boy ma'naviy, madaniy salohiyati va tarixiy merosiga asoslangan jamiyatning ijtimoiy institutlarini safarbar etishga hissa qo'shadi. Mafkuraviy stereotiplarni shakllantirish orqali ommaviy axborot vositalari barqaror, etnik, o'z-

o'zini identifikatsiya qilish hukmronligiga hissa qo'shdi. Til va madaniy xilma-xillikning tabiiy integratsiya jarayonlari ortib boradi [7].

Hozirgi vaqtda axborot tizimining asosiy vazifasi Yangi O'zbekistonning xalqaro mavqeyini yuksaltiruvchi, aholining ma'nan shakllangan va axloqan yetuk guruhlarini yagona jamoaga birlashtirishdan iborat. Ommaviy axborot vositalarining noaniqlik sharoitida faoliyatini tizimlashtirish deyarli mumkin emas, chunki ular mintaqadagi va uning atrofidagi siyosiy, iqtisodiy va axborot vaziyatidagi o'zgarishlarga darhol javob berishga lozim [12].

Ommaviy ongda ommaviy axborot vositalari jamiyat va davlat hayotida ro'y berayotgan voqealarni erkin yoritib turuvchi rolni o'ynaydi. Shuning uchun ham axborot sohasi jamiyat hayotiga ta'sir qilish qobiliyati ega. Internet bugungi kunda senzurdan deyarli xoli mustaqil axborot manbasi hisoblanadi. Axborot tizimlari bugungi kunda xilma-xil, bu holat ko'p jihatdan soha sanoatining jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Mintaqadagi axborot resurslari, mahsulotlar va xizmatlar bozorining hozirgi holati mustaqil sharoitda ishlaydi, shu boisdan ham axborot makonida o'ziga xos individual xususiyatlar paydo bo'lmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy ong yangi bosqichda, ob'ektiv va adekvat axborotga shoshilinch ehtiyojni boshdan kechirgan holda, muqobil kommunikantlarga muhtoj. Bu nafaqat ommaviy axborot vositalarining tabiiy tanqidiga, balki yo'qotishga ham olib keladi, kutilayotgan auditoriya va ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilayotgan ijtimoiy voqelikni kuchaytiradi, bu esa mahalliy ommaviy axborot vositalarining samaradorligini, axborot-madaniy va ijtimoiy rivojlanish barqarorligini oshiradi.

Axborot oqimini kuzatish ob'ektiv zarurat bilan bog'liq bo'lib, bu etarli ijtimoiy yo'naltirish imkoniyatini ta'minlaydi. Yangi O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar axborot makonini shakllantirish jarayonlarining mexanizmlari va dinamikasiga ta'sir ko'rsatdi va turli xil tarmoqlarning paydo bo'lishiga olib keladi [15].

Bosma ommaviy axborot vositalarining nashr adadining kamayish tendensiyasi internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarning ko'payib borishi va ularda ijtimoiy-siyosiy va ko'ngilochar turdagi xabarlar oqimining sezilarli darajada ortib borishi bilan bog'liq. Bundan tashqari qog'oz va poligrafiya xizmatlari narxlarining doimiy va barqaror o'sishi, pochta aloqasi xizmatlari tariflarining oshishi, sifati ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy turdagi bosma nashrlar tirajidagi o'zgarishlar ko'p jihatdan ularga "obuna" bo'lishning qisqarishi bilan bog'liq.

2019-yilda davlat va nodavlat tashkilotlardagi axborot xizmatlarining manbalari — rasmiy veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi kanallar 559 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu raqam 2410 taga yetdi. Ommaviy axborot vositalaridagi tanqidiy chiqishlarga vazirlik va idoralar, hokimliklarning axborot xizmatlari orqali tezkor munosabatlar bildirish amaliyoti shakllandi. Buning tasdig'ini davlat idoralari tomonidan tanqidiy materiallarga javob qaytarish ko'rsatkichi 2018 yilda 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yil yakuniga ko'ra qariyb 90 foizga yetgani misolida ham ko'rish mumkin.

Hozirgi vaqtda elektron ommaviy axborot vositalari, xususan, Internet jurnalistikasi hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan 1893 ta ommaviy axborot vositasidan 638 tasi yoki 33,7 foizi Internet nashrlari – veb-saytlar sifatida ro'yxatdan o'tgan [1].

2023 yilda yurtimizda 2140 ta yoki 2016 yilga nisbatan 626 ta ko'p ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritdi. Ularning 65 foizi nodavlat media vositalari ekani sohada tarkibiy o'zgarishlar izchil amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. An'anaviy nashrlar bilan birga

internet nashrlar ham jadal rivojlanib, ularning soni 745 taga yetgani va o'quvchilar ommasini tobora ko'proq o'ziga jalb etmoqda.

Davlat idoralari va mahalliy hokimliklar tarkibida axborot xizmatlari yo'lga qo'yilgani xalq bilan muloqotni kuchaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash, ularning ochiqlik borasidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash hamda ilg'or xalqaro standartlar asosida baholash tizimi joriy etildi. Jumladan, birinchi marta 2022 yil yakunlariga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlarida amalga oshirilgan ishlarni baholash bo'yicha Ochiqlik indeksi natijalari e'lon qilingani bu yo'ldagi muhim qadam bo'ldi.

Mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xalqaro axborot makoniga ham dadil kirib bormoqda. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda bir qator xususiy telestudiyalarning ko'rsatuvlari jahonning 100 dan ortiq davlatlariga uzatilmoqda. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, "Dunyo" axborot agentligi o'z xabarlarini 10 ta xorijiy tilda tarqatmoqda [2].

Xulosa. Yangi O'zbekistonda faoliyat yurituvchi rivojlangan televideniye tarmog'i va radioeshittirish, davriy nashrlar va onlayn jurnalistika bilan ifodalanadigan ommaviy axborot vositalari tizimi tarkibiy xilma-xilligi bilan xarakterlanadi. Elektron ommaviy axborot vositalari va tarmoq texnologiyalarini respublikada strategik ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etish muhimdir, bu nafaqat yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishini oldindan belgilab beradi, balki demokratik axborot muhitini shakllantirishga ham hissa qo'shadi.

Yangi O'zbekiston hamjamiyatining barcha ijtimoiy subyektlari faoliyatining izchilligi axborot va axborotlashtirish sohasidagi tegishli qonunchilik bazasi tufayli erishilgan ommaviy kommunikatsiyaning samaradorligi bilan bog'liq, bu esa muvaffaqiyatli rivojlanish uchun asos yaratadi. Ommaviy axborot vositalari va aloqalarning qonun bilan tartibga solinadigan faoliyati ularni haqiqiy siyosiy tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi, bu davlatga nafaqat jamoatchilik fikridagi o'zgarishlarni bashorat qilish, balki mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Ommaviy axborot vositalari tizimini rivojlantirish uchun eng maqbul model davlat va jamoat ommaviy axborot vositalarining senzurasiz erkin va xolis faoliyat olib borishidir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. // Xalq so'zi. 2021 iyun 27 son 135 (7915).
2. Mirziyoyev Sh.M <https://president.uz/oz/lists/view/6442>
3. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.12.2019-y., 07/19/4541/4097-son, 01.01.2020-y., 07/20/4555/4257-son.
4. Mukhamadqodirovich, R. A. (2020). The role of mass media in the history of the period of independence. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(4), 356-359.
5. Расулов, А. М. (2021). Ўзбекистонда оммавий ахборот воситаларининг фаолияти. *Scientific progress*, 2(1), 804-809.
6. Расулов, А. М. (2021). Ўзбекистондаги иқтисодий ислохотларда ахборот технологияларининг ўрни. *Scientific progress*, 2(1), 1568-1572.
7. Расулов, А. М. (2020). Ўзбекистон Республикаси тарихида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. *Взгляд в прошлое*, (SI-1№ 3).

8. Rasulov, A. M. (2021). Ўзбекистондаги оммавий ахборот воситаларининг тармоқлари. *Scientific progress*, 2(4), 836-838.
9. Rasulov, A. M. (2022). Оммавий ахборот воситаларининг жамият аъзоларига ғоявий таъсири. *Scientific progress*, 3(4), 871-875.
10. Rasulov, A. M. (2021). Ўзбекистонда глобал тармоқнинг ривожланиши. *Scientific progress*, 2(6), 926-930.
11. Rasulov, A. M. (2021). Мустақиллик йилларида ўзбекистондаги миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик. *Scientific progress*, 2(6), 931-936.
12. Rasulov, A. M. (2022). Мустақиллик йилларида оммавий ахборот воситалари эркинлиги. *Scientific progress*, 3(10), 4-8.
13. Расулов, А. (2022). Истиқлол даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, 1(1), 640-647.
14. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, 1(1), 633-640.
15. Mukhamadqodirovich, R. A. (2023). Mass media materials as a source on the history of the republic of Uzbekistan. *Journal of innovations in scientific and educational research*, 2(14), 605-610.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 2 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).